

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati”  
aksiyadorlik jamiyatining  
2024-yil “07”-martdagi 142-sonli buyrug‘iga  
1-ilova

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy  
bo‘linmalariga tanlov asosida kadrlarni ishga qabul qilish to‘g‘risida”gi  
N I Z O M**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga (keyinchalik matnda - “NKMK” AJ deb yuritiladi) kadrlarni ishga qabul qilishda tanlov o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagи “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-iyundagi “Ishga qabul qilish chog‘ida tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 52-2023/B-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minalash hamda ishga qabul qilishning ochiq tanlov asosida tashkil etish, barcha nomzodlarga teng imkoniyatlar yaratish va kadrlarni tanlashning shaffof tizimini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan.

3. Mazkur nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**vakant ish o‘rni** - qonunchilikka muvofiq tegishli malakaga ega xodim qabul qilinishi mumkin bo‘lgan “NKMK” AJda bo‘sh turgan ish o‘rni (kasb, lavozim);

**nomzod** - tashkilotdagи bo‘sh (vakant) bo‘lgan muayyan ish o‘mini (lavozimni) egallash uchun tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan jismoniy shaxs;

**malaka talablari** - nomzodlarga nisbatan ish beruvchi tomonidan belgilanadigan, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar;

**tanlov** - vakant ish o‘rni oldiga qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarish bo‘yicha talablarga bilimi, malakasi, kasbiy ko‘nikmasi, shaxsiy - psixologik xususiyatlari mosligini aniqlashga qaratilgan, mehnat shartnomasini tuzishdan oldingi holatlar majmui;

**sinov** - sinov o‘tkaziladigan kunda tanlov komissiyasi tomonidan nomzodlar bilan o‘tkaziladigan test, suhbat, amaliy mashg‘ulot va shaxsga oid ma’lumotlar uchun baholash jarayoni;

**kadrlarni ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov komissiyasi** (keyingi o‘rinlarda - **Tanlov komissiyasi**) - “NKMK” AJning vakant o‘rinlariga nomzodlarni tanlovdan o‘tkazish, uni ishga qabul qilish yoki rad etish bo‘yicha xulosa berish vakolatiga ega bo‘lgan “NKMK” AJning mas’ul xodimlari;

**tanlovni o‘tkazish uchun talabnoma** - xodimlarga bo‘lgan ehtiyojni qayd etadigan standartlashtirilgan shakl;

**buyurtmachi** - tanlovni o‘tkazish uchun talabnoma beruvchi bo‘linma, bo‘lim, sex rahbari;

**ijrochi** – jamiyatning Kadrlar boshqarmasi va tarkibiy bo‘linmalarning kadrlar xizmatlari;

**kompetensiya (vakolat)** - xodimning xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur bo‘lgan kasbiy va xulq-atvor xususiyatlari majmui;

**malakaviy talablar** - ish beruvchi tomonidan nomzodlarga ish tajribasi

va kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablar;

**rezyume** – nomzodning kompetensiya, ish tajribasi, ma’lumoti, yaqin qarindoshlari hamda shaxsiga doir boshqa ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjat;

**ishga taklifnomा** - ish beruvchining jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasini tuzish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq ifodalangan rozilik bildirishini anglatuvchi hujjat;

**baholash** - nomzodning amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladigan shaxsiy, kasbiy-axloqiy va mehnat fazilatlarini aniqlash maqsadida mehnat samaradorligini o‘rganish natijalarini baholash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

**test sinovlari** - savollar va bir nechta variantli javoblardan iborat testlar yordamida nomzodlarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini baholash usuli;

**suhabat** - dialog yordamida nomzodlarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini baholash usuli bo‘lib, uning maqsadi nomzodning oldingi ish tajribasidan aniq misollarni, shuningdek, ish beruvchining vakili tomonidan oldindan tayyorlangan savollarga nomzodning yechimlarini o‘rganish usulida aniqlashdan iborat;

**shaxsga doir ma’lumotlar** - nomzodga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot;

**shaxsga doir ma’lumotlarni baholash** – nomzodning shaxsiy va ahloqiy, amaliy ishda namoyon qilgan kasbiy, ma’naviy va ishchanlik sifatlarini aniqlash maqsadida, ish faoliyatini o‘rganib chiqish hamda natijalarini baholash tadbirlari;

**baholash jarayoni ishtirokchilari** - tanlov komissiyasi va nomzodlar;

**fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha apellyatsiya komissiyasi** - (keyingi o‘rinlarda - **Apellyatsiya komissiyasi**) - “NKMK” AJning vakant ish o‘rinlarini egallash uchun o‘tkazilgan nomzodlarning ochiq tanlovi natijalariga ko‘ra murojaatlarni ko‘rib chiqish huquqiga ega bo‘lgan “NKMK” AJ mas‘ul xodimlari;

**nomzodlarga doir ma’lumotlar bazasi** - jamiyatning ichki serverida nomzodlarning shaxsga doir ma’lumotlar mavjud bo‘lgan axborot tizimi tarzidagi ma’lumotlar bazasi;

**meritokratiya** – muhim rahbarlik va rahbarlik lavozimlariga ijtimoiy mavqeい va faoliyat turidan qa‘tiy nazar qobiliyatli shaxslarni tayinlash;

4. Kadrlarni tanlash bo‘yicha tanlovn o‘tkazish vaqtida nomzodlarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, dinga bo‘lgan munosabati, e’tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek ularning ishchanlik sifatlari va mehnati natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg‘ulotlar sohasida biror-bir to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita cheklar belgilash, xuddi shuningdek imtiyozlar berish kamsitish deb hisoblanadi va bunga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Kadrlarni tanlash tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- lavozim yoki kasbga qo‘yiladigan talablarga mos keladigan nomzodlarni tanlash;
- ichki kadrlar zaxirasini shakllantirish va doimiy ravishda to‘ldirish;
- nomzodning barcha fazilatlari va ustunliklarini, shu jumladan uning ma’naviy-ahloqiy va vatanparvarlik sifatlarini ob’ektiv baholash imkonini beradigan ochiq mustaqil saralab olish asosida jamiyatga ishga qabul qilish;

- ishga qabul qilish chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish.

6. Kadrlar tanlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlarini odilona va ob’ektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni jamiyatga ishga qabul qilish, ularni boshqa ishga o‘tkazish hamda ularning xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya mezonlarini qo‘llash;

- shtat jadvalida mavjud bo‘lgan vakant ish o‘rinlari bo‘yicha tanlov o‘tkazish.

7. Ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni zaxiraga qo‘yilgan ish

o‘rinlariga ishga joylashtirish O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

Kadrlar xizmatlari mahalliy mehnat organi tomonidan shaxslarga taqdim qilingan ishga kirish yo‘llanmalarining (kvota shaklidagi) asosliligini tekshirish uchun barcha zaruriy choralarni ko‘rishi lozim.

8. Mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlariga tanlov o‘tkazishga faqatgina bo‘linmada ishlab turgan xodimlar va kadrlar zaxirasidagi shaxslar orasida talab etilayotgan lavozim yoki kasb malaka talablariga muvofiq bo‘lgan shaxslar aniqlanmagan taqdirdagina yo‘l qo‘yiladi.

9. Mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rniga, “NKMK” AJning idoraviy hujjatlarida o‘rnatilgan tartibga rioya qilgan holda tanlov o‘tkazishga, faqatgina tarkibiy bo‘linma rahbari va tegishli sohani nazorat etuvchi bo‘linma rahbarining o‘rinbosari yoki bosh mutahassisining xulosasiga ko‘ra, “NKMK” AJ rahbariyati roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

10. Jamiyatning ishchi-xodimi tarkibiy bo‘linmadan ikkinchi tarkibiy bo‘linmaga ko‘chirma xati orqali ishga qabul qilinganda tanlov o‘tkazish talab etilmaydi va bu tanlov komissiyasining qaroriga asosan bayonnomma rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi.

## **2-bob. Tanlovni tashkil etish tartibi**

11. Ish beruvchi tanlovni markaziy apparat va tarkibiy bo‘linmadagi bo‘sh (vakant) ish o‘rni uchun munosib nomzodlarni tanlash maqsadida tashkil etadi va o‘tkazadi.

12. Ishga qabul qilishda yoki boshqa ishga o‘tkazishda tanlov markaziy apparat, tarkibiy bo‘linma tizimida mavjud bo‘sh (vakant) ish o‘rinlaridan kelib chiqqan holda o‘tkaziladi.

13. Ishga qabul qilish va boshqa ishga o‘tkazish chog‘ida tanloving o‘z vaqtida va sifatli tashkil etilishi hamda o‘tkazilishini ta’minlash uchun tarkibiy bo‘linma rahbarining buyrug‘i bilan doimiy faoliyat yuritadigan kadrlarni ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov komissiyasi tashkil etiladi.

14. Tanlov komissiyasi tarkibi markaziy apparat, tarkibiy bo‘linmaning xodimlari va tegishli sohaning malakali mutaxassislari orasidan kamida besh kishidan iborat va toq sonli tarkibda shakllantiriladi.

Bunda, markaziy apparat, tarkibiy bo‘linma rahbari yoki uning o‘rinbosari Tanlov komissiyasi raisi hamda tashkilotning kadrlar bo‘limi (xizmati) mas’ul xodimi Tanlov komissiyasi kotibi hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi kotibi toq sonli tarkib shakllantirishda inobatga olinmaydi hamda nomzodlarni baholashda vakolatli ham hisoblanmaydi.

15. Tanlov komissiyasi tarkibi quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- tarkibiy bo‘linmaning rahbari yoki uning o‘rinbosari (komissiya raisi);
- tarkibiy bo‘linmaning bosh mutaxassislari (yo‘nalishlar bo‘yicha);
- Komplaens xizmati mas’ul xodimi;
- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo‘yicha mas’ul xodimi;
- Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga oid ishlarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i yoki mas’ul xodimi;
- vakant ish o‘rni mavjud bo‘lgan bo‘linma, bo‘lim, sexlarning rahbarlari yoki jamoada o‘z hurmatiga, yuqori malakaga ega yetakchi mutaxassislari.

Tanlov komissiyasi tarkibiga kiritilgan xodim vaqtinchalik ishda bo‘lmagan holatlarda, uning vazifasini bajaruvchi shaxs tanlovga ishtirot etadi.

Tanlov komissiyasining vakant ish o‘rni mavjud bo‘lgan bo‘linma, bo‘lim, sexlarning rahbarlari yoki yetakchi mutaxassislaridan bo‘lgan a’zosi komissiyada ikki nafari, qolgan tanlov komissiyasi a’zolari bir nafardan ishtirot etishi lozim.

16. Tanlov komissiyasi a'zolarining barchasi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Tanlov komissiyasining qarori oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va majlisda ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

Berilgan ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda, Tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

17. Tanlov komissiyasi tarkibiga nomzodning yaqin qarindoshi yoki tanlovning natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lган yoxud tanlovning xolis o'tkazilishiga ta'sir ko'rsatadigan shaxslar kiritilishi mumkin emas.

18. Tanlov davlat tilida, shuningdek nomzodning so'roviga ko'ra u tanlagan xorijiy tilda o'tkazilishi mumkin.

19. Tanlov komissiyasi quyidagi huquqlarga ega hisoblanadi:

-tanlov o'tkazish vaqtini belgilash;

-tanlovning sifatli o'tkazilishini ta'minlash maqsadida komissiya tarkibiga professional va malakali mutaxassislarni jalb qilish;

-malakali kadrlarning tanlab olinishini ta'minlash maqsadida tanlov tadbirlari o'tkazilish jarayonini nazorat qilish;

-Tanlov komissiyasi a'zolari ishlab chiqilgan savol-javoblardan tashqari, vakant ish o'rinaliga (kasb, lavozim) faoliyatiga oid boshqa savollarni nomzodga berish;

-nomzod tomonidan sinov kuniga qadar yoki sinov jarayoni boshlanishidan oldin o'zining shaxsiy ma'lumotnomasi (ob'yektivka, rezyume)ni, jamiyatning vakant ish o'rinaliga talab etilgan, malaka, belgilangan kasbiy mahorat va maxsus bilim hamda tajribani (tegishli kasb va lavozimlarda mehnat stajini) tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmasa, nomzod to'g'risida Komplaens xizmatining salbiy xulosasi mavjud bo'lganda, tanlov komissiyasi nomzod bilan suhbat, savol-javob o'tkazmaslik va shaxsga oid ma'lumotlarni o'rganmaslik.

20. Tanlov komissiyasi quyidagilarga majbur hisoblanadi:

-nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni vakant ish o'rniga quyilgan talablarga muvofiqligini o'rganib chiqish;

-tanlovni o'tkazish vaqtida nomzodlarga beriladigan savollarni sifatli va bo'sh (vakant) ish o'rni uchun belgilangan malaka talablariga muvofiqligini o'rganib chiqish;

-Tanlov komissiyasi a'zolari (yoki vazifasini bajaruvchi shaxs) tanlov jarayoniga qatnashish;

-Tanlov komissiyasi o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, ochiqlik va shaffoflik prinsinlari asosida mustaqil ravishda amalga oshirish;

-Tanlov komissiyasi nomzodlar ro'yxatini shakllantirish, nomzodlar bilan savol-javoblarni o'tkazib baholash, nomzodning shaxsga oid ma'lumotlarini o'rganish, tanlov natijalari bo'yicha xulosasini bayonnomada aks ettirilishini ta'minlaydi.

21. Nomzod talabgor bo'lган lavozim, kasb malaka talablariga javob bermaydigan hollarda (*malaka guvohnomasi mavjud bo'lmagan taqdirda*) uni tanlovga ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi va bu haqida unga ma'lum qilinadi.

22. Agarda nomzod tomonidan taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlari haqqoniy bo'lmagan taqdirda, tanlov komissiyasi nomzodni tanlovning har qanday bosqichiga o'tkazmaslikka haqli.

23. "NKMK" AJga ishga qabul qilish uchun ochiq tanlov o'tkazish va tanlov doirasida o'tkaziladigan baholash tadbirlarini real vaqt rejimida Internet tarmog'i orqali translyatsiya qilishni nazarda tutishi kerak.

Shu maqsadda ochiq tanlov bosqichlari videoyozuv moslamalari yordamida yozib olinadi va bir yil davomida saqlanadi.

24. Davlat organlaridagi yoki xodimlarning vakillik organlaridagi saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylanganligi tufayli ishdan ozod qilingan shaxslarga ularning saylab

qo‘yiladigan lavozimdagи vakolatlari tugagandan keyin tanlovsiz avvalgi ishi (lavozimi) beriladi, bunday ish (lavozim) mavjud bo‘limganda esa boshqa teng ish (lavozim) beriladi (*O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 102-moddasi*).

25. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlarini va Senatida doimiy asosda ishlagan Senat a‘zolarini vakolatlari muddati tugaganidan keyin, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tarqatib yuborilgan taqdirda ishga joylashtirish “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

26. Harbiy xizmatga chaqirilgan (kirgan) xodim zaxiraga bo‘shatilganidan yoki iste’foga chiqarilganidan keyin, agar u ishga joylashish masalasi bo‘yicha ish beruvchiga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi qo‘shinlaridan bo‘shatilgan kundan e’tiboran uch oydan kechiktirmay murojaat qilgan bo‘lsa, avvalgi ish joyida ishga joylashishda ustuvor huquqqa ega bo‘ladi.

Harbiy xizmatga chaqirilgan (kirgan), lekin keyinchalik zaxiraga bo‘shatilgan yoki iste’foga chiqarilgan xodim, agar u harbiy xizmatga chaqirilgan (kirgan) kundan e’tiboran ko‘pi bilan uch oy o‘tgan bo‘lsa, avvalgi ish joyiga (lavozimiga) qaytish huquqiga ega (*O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 102-moddasi*).

27. Ish beruvchi texnologiyaning, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o‘zgarishi, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarishiga ko‘ra ilgari o‘zi bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlarni, basharti xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan e’tiboran olti oy ichida tarkibiy bo‘linmada xodim ilgari egallagan o‘sha mutaxassislik va malaka bo‘yicha bo‘sh (vakant) ish o‘rnlari paydo bo‘lgan bo‘lsa, tanlovsiz ishga qabul qilishi shart (*O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 102-moddasi*).

28. Bo‘sh ish o‘rinlariga chet el fuqarolari ham tanlov asosida ishga qabul qilinishi mumkin. Tanlovda g‘olib bo‘lgan chet el fuqarosi bilan mehnat shartnomasi tuziladi. Chet el fuqarosi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi muddatini uzaytirish ish beruvchi tomonidan Tanlov komissiyasining qarori asosida amalga oshiriladi.

Mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududiga qonuniy ravishda kirib kelgan chet el fuqarosi bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddati O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir tasdiqnomaning amal qilish muddatidan, agar bunday tasdiqnomaning bo‘lishi (olinishi) qonunchilikda belgilangan bo‘lsa, ortiq bo‘lmasligi kerak.

29. Ma’lumot yoki maxsus ko‘nikmalarni talab qilmaydigan bo‘sh ish o‘rinlariga (*farrosh, yukchi va hokazo*) ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan va ish topishda qiynalayotgan, mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan fuqarolarni ishga qabul qilishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Tanlov nomzodning shaxsga doir ma’lumotlari (*Mahalliy davlat xokimiyati organlarining temir, ayollar, yoshlar daftalarida ruyhatda turishi to ‘g‘risida ma ’lumotnomasi*) bo‘sh ish o‘rnlari talablariga mos kelishi, nomzodning ijtimoiy kelib chiqishi, shuningdek, tanlov komissiyasining qarori asosida amalga oshiriladi.

Bunda, ma’lumot yoki maxsus ko‘nikmalarni talab qilmaydigan bo‘sh ish o‘rinlariga, kam ta’minlangan hisoblanmagan va mehnat bozorida raqobatlasha oladigan shaxsni qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Kam ta’minlangan hisoblanmagan va mehnat bozorida raqobatlasha oladigan shaxslar bo‘sh ish o‘rinlariga tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

30. Jamiyatda o‘rnatilgan tartibga ko‘ra, ish beruvchi tanlovda ijobjiy natija ko‘rsatgan nomzod bilan mehnat shartnomasini tuzish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq ifodalangan rozilikni anglatuvchi taklif bilan murojaat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, ish beruvchi taklifnomasi yuborilgan kundan e’tiboran bir oy ichida ushbu shaxsni ishga qabul qilishi rad etishga haqli emas.

### **3-bob. Talabnoma rasmiylashtirish tartibi**

31. Ijrochi tomonidan tanlov o‘tkazish uchun Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan talabnoma asos bo‘ladi (*mazkur nizomning 1-ilovasida keltirilgan shaklda*).

32. Quyidagi sabablar vakant kasb yoki lavozimiga tanlov o‘tkazish yuzasidan talabnoma tuzish uchun asos bo‘lishi mumkin:

- ilgari ushbu kasb yoki lavozimni egallagan xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilinganligi yoki u boshqa lavozimga o‘tkazilganligi;
- shtatlar jadvali o‘zgartirilganligi;
- yangi ob’ekt foydalanishga topshirilganligi.

33. Bo‘sh ish o‘rni mavjud bo‘lgan bo‘linmaning rahbari Buyurtmachi sifatida ehtiyojdan kelib chiqqan holda Ijrochiga talabnoma yuboradi.

34. Ijrochi talabnoma kelib tushganidan 15 ish kuni davomida, shtat birligini mavjud bo‘lgan zaxiradan, tanlov orqali butlanishi haqida yozma ravishda xizmat xati orqali Buyurtmachiga habar beradi.

### **4-bob. Tanlov**

#### **47. Tanlov quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:**

birinchi bosqich - talabnoma berish;

ikkinchi bosqich - nomzodlarni qidirish, jamlash va malakaga oid talablarga muvofiqligini o‘rganish;

uchinchi bosqich - nomzodlarni sinovdan o‘tkazish va yakuniy baholash;

to‘rtinchi bosqich - tanlovnini yakunlash va nomzodlarni tanlash.

48. Tanlov komissiyasi kotibi tomonidan vakant ish o‘rinlari va unga qo‘yiladigan malaka talablari, lavozim majburiyatları hamda tanlov o‘tkazish joyi to‘g‘risida e’lon beradi va e’lon bo‘yicha nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish muddati o‘n kalendar kunini tashkil qiladi.

49. Malaka talablari va lavozim majburiyatları vakant ish o‘rni mavjud bo‘lgan bo‘linmalarning rahbarlari tomonidan Tanlov komissiyasi kotibiga taqdim qilinadi.

50. Tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon:

- “NKMK” AJ rasmiy veb-saytining e’lon sahifalariga (*Ijtimoiy tarmoqlarga*) hamda jamiyat tarkibiy bo‘linmalari binosining peshlavhasiga joylashtiriladi;

- Tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon “NKMK” AJning Kadrlar boshqarmasi va bo‘linmalarda kadrlar xizmati tomonidan joylashtiriladi.

51. Nomzodlarga qulaylik yaratish maqsadida tashkilotga kirish joylarida nomzodlarni saralash tartibi, ularga qo‘yiladigan talablar haqidagi ma’lumotlar qayd etilgan axborot stendlari majburiy tartibda joylashtirilishi lozim.

52. Tanlov komissiyasi e’lon berish muddati tugagan kunidan boshlab besh ish kunidan kechiktirmay tanlovda ishtirok etish bo‘yicha nomzodlarning xujjalalarini vakant ish o‘rniga qo‘yilgan talablarga muvofiqligini o‘rganib chiqadi.

53. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlarni taqdim etishda saytdagi elektron so'rovnomani to'ldirish yoki Tanlov komissiyasi kotibiga murojaat qilish orqali amalga oshiriladi.

54. Tanlov jarayoniga nomzodlar bevosita yoki "ZOOM" dasturiy ta'minoti (platformasi) yoki boshqa axborot texnologiyalari (*Tanlov komissiyasi a'zosi hamda nomzod tomonidan bir vaqtida foydalanish imkoniyati mavjud axborot texnologiyalari qo'llaniladi*) vositasida masofadan tanlov jarayoniga qatnashishi mumkin.

55. Nomzod malaka talablariga javob bergen taqdirda bir nechta vakant ish o'rnlari bo'yicha tanlovda ishtirok etish huquqiga ega.

56. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlar taqdim qilishda yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etilganligini aniqlanishi ularni tanlovdan chetlatish uchun asos hisoblanadi.

57. Vakant kasb, lavozim bo'yicha tanlovni amalga oshirish uchun kamida ikkita nomzoddan hujjatlar kelib tushgan taqdirda o'tkaziladi.

## **6-bob. Nomzodlarni qidirish, jamlash va malakaga oid talablarga muvofiqligini o'rghanish**

58. Tanlov komissiyasi kotibi nomzodlarni tanlash bo'yicha tashkiliy vazifalarni bajaradi. Shu jumladan, tanlov komissiya kotibi buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan talabnomaning asosliliginini aniqlash uchun tanlov komissiyasi bilan muzokaralar olib boradi, u tanlov sanasini, ushbu vakansiya uchun potensial nomzodlarning rezyumelarini ko'rib chiqadi.

59. Tanlovda ishtirok etish uchun hujjatlarni taqdim qilgan nomzodlarga oid ma'lumotlarni Tanlov komissiyasi kotibi umumlashtiradi va Tanlov komissiyasiga taqdim qiladi.

60. Tanlov komissiyasi nomzodlarning vakant ish o'rniga qo'yilgan talablarga muvofiqligini o'rghanib chiqadi va o'z xulosasini 2-ilovaga asosan Tanlov komissiyasi kotibiga taqdim qiladi.

61. Malaka talablariga muvofiq bo'lgan nomzodlar tanlovda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi va bu to'g'risida Tanlov komissiyasi kotibi tomonidan nomzodlarga xabar (telefon, sms, yoki elektron pochta orqali) beriladi.

62. Malaka talablariga muvofiq bo'limgan (nomuvofiqlik sababi 2-ilovada ko'rsatib o'tiladi) nomzodlar tanlov ishtirok etmaydi va bu to'g'risida Tanlov komissiyasi kotibi tomonidan nomzodlarga xabar beriladi.

63. Ijrochi doimiy asosda nomzodlarning rezyumelaridan iborat ma'lumotlar bazasini shakllantiradi, to'ldirib boradi va undan foydalanadi.

64. Nomzodlarning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, telefon raqami va boshqalar kabi matnli ma'lumotlari jamiyat serverida muddatsiz saqlanadi. Nomzodlar hujjatlarining skanerlangan nusxalari ma'lumotlar bazasida 5 yil davomida saqlanadi. Ushbu muddat tugagandan so'ng, hujjatlar ma'lumotlar bazasidan o'chiriladi.

65. Ijrochi ichki kadrlar zaxirasi bazasini ham shakllantiradi.

66. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar lavozim va ishchi yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

67. Tanlov bo'sh ish o'rnlari to'g'risidagi e'lon muddati tugagan kundan boshlab o'n besh ish kundan kechiktirmay tanlov komissiyasi tomonidan o'tkazilishi kerak.

Agar bir oy ichida ijrochi tanlov komissiyasiga belgilangan talablarga javob beradigan nomzodlar ro'yxatini taqdim etmasa, tanlov sanasi ijrochi tomonidan tanlov komissiyasi bilan kamida ikkita nomzodning javobi olingandan keyin kelishiladi.

68. Nomzodlar soni va tanlov komissiyasining vaqt imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlov uzlusiz ravishda uch ish kuni davomida o'tkazilishi mumkin.

69. Ijrochi nomzodlarga tanlovnin o'tkazish vaqtini va joyi hamda talab qilinadigan hujjatlar to'g'risida (sms, e-mail yoki boshqa tarzda) xabardor qilinishini ta'minlaydi, shuningdek tanlov sanasidan ikki ish kuni oldin "NKMK" AJning rasmiy veb-saytida (tanlov uchun) e'lon nashr qilinadi.

70. Tanlovda ishtirok etuvchi nomzodlar hujjat topshirish jarayonida quyidagi hujjatlarning skanerlangan nuxxalarini taqdim etishlari shart:

- shaxsni tasdiqlovchi hujjatning skanerlangan nusxasi (pasport yoki ID-karta);

- diplom va ma'lumot to'g'risidagi sertifikatning yoki muayyan turdagisi ishlarni bajarish huquqini beruvchi guvohnoma va boshqa tegishli hujjatlarning, shu jumladan haydovchilik guvohnomalarining skanerlangan nusxalari;

- harbiy bilet yoki harbiy ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnomaning skanerlangan nusxasi (harbiy xizmat yoshidagi yoki harbiy xizmatga chaqirilgan shaxslar uchun);

- asosiy ish joyidan ma'lumotnomaning skanerlangan nusxasi (o'rindoshlik bo'yicha ishga qabul qilinayotgan shaxslar uchun).

71. Agar nomzod zarur hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, tanlov komissiyasi baholash tadbirlarini o'tkazmaslik va nomzodni bo'sh ish o'rinaliga da'vogarlar ro'yxatidan chiqarib tashlashga haqli.

72. Tanlovdan chetlashtirilgan yoki belgilangan kuni tanlovda qatnasha olmagan nomzodlar navbatdagi tanlovda qatnashish huquqiga ega.

73. Tanlov o'tkaziladigan kun to'g'risida xabardor qilingan, lekin unda ishtirok etmagan nomzodlar tanlovda ishtirok etmagan deb hisoblanadi.

74. Tanlovda qatnashmagan nomzodlar bilan mehnat shartnomalari tuzilmaydi (ularga ishslashga ruxsat berilmaydi).

## **7-bob. Nomzodlarni sinovdan o'tkazish va yakuniy baholash**

75. Nomzodning bo'sh (vakant) ish o'rni uchun belgilangan malaka talablariga muvofiqligini, shuningdek uning ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasini aniqlash uchun Tanlov komissiyasi tomonidan test, suhbat va amaliy mashg'ulot sinov tadbirlarining barchasi yoki ulardan biri o'tkazilishi mumkin.

76. Tanlov tadbirlari o'tkazilayotgan xonaga nomzodlar tomonidan mobil aloqa vositasi, kompyuter yoki boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, kitob, lug'at, shpargalka va boshqa materiallar olib kirish hamda foydalanish, shuningdek boshqa nomzodlar bilan suhbatlashish taqiqlanadi.

Bunda, ushbu taqiqlangan materiallarni olib kirgan yoki foydalangan, shuningdek tanlov tadbirlari vaqtida boshqa nomzodlar bilan suhbatlashgan nomzod tanlov tadbirlarini o'tkazish tartibini buzgan deb hisoblanadi hamda dalolatnoma asosida tanlov tadbirlaridan chetlashtiriladi.

77. Tanlov tadbirlarini o'tkazish vaqtida nomzodning natijalari (tanlov natijalari) ballik tizimda baholanadi.

78. Tanlov tadbirlarining umumiyligi 100 ballik tizimda baholanadi. Bunda, tanlov tadbirlari test va suhbat shaklida o'tkazilganda, test savollari 25 tani va har bir to'g'ri javob 2 ballni tashkil qiladi, suhbat savollari 10 tani va har bir to'g'ri va aniq javob uchun 5 ballni tashkil qiladi.

79. Tanlov test, amaliy mashg'ulot va suhbat sinov tadbirlarining barcha shakllarida o'tkazilgan taqdirda umumiyligi 100 ballik tizimda baholanadi.

Bunda, test sinovlariga 30 ball (*15 ta savol har bir to‘g‘ri javob 2 ball*), amaliy mashg‘ulotlar uchun 30 ball va suhbat shakliga 40 ball (*8 ta savol har bir to‘g‘ri va aniq javob uchun 5 ball*) beriladi.

80. Tanlovning oshkora va xolis o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida Tanlov komissiyasi tanlov tadbiralarini onlayn rejimda ovozli videotranslatsiya qilishi mumkin.

81. Tanlov natijasiga ko‘ra eng yuqori ball to‘plagan nomzod tanlov g‘olibi hisoblanadi va ishga qabul qilinadi.

82. Tanlov g‘olibi o‘z arizasiga ko‘ra mehnat shartnomasini tuzishdan bosh tortgan taqdirda, Tanlov komissiyasi qaroriga asosan eng yuqori balldan keyingi o‘rinni egallagan nomzod tanlov g‘olibi deb topiladi.

83. Tanlov muhandis-texnik lavozimlari uchun quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

- birinchi bosqich - nomzodlarni testdan o‘tkazish;
- ikkinchi bosqich - nomzodlarni amaliy sinovlardan o‘tkazish (ehtiyoj bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladi);

- uchinchi bosqich - nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish.

84. Tanlov ishchi kasblari uchun quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

- birinchi bosqich - nomzodlarni testdan o‘tkazish;
- ikkinchi bosqich - nomzodlarni amaliy mashg‘ulot sinovlaridan o‘tkazish (ehtiyoj bo‘lgan taqdirda);

- uchinchi bosqich - nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish.

85. Tanlov idoraviy harbiylashgan qo‘riqlash xizmatlari uchun quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

- birinchi bosqich – amaliy mashg‘ulot (*jamiyatning idoraviy hujjatlarida o‘rnataligan talablarga ko‘ra, nomzodlarning umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash*);
- ikkinchi bosqich - nomzodlar bilan test o‘tkazish (huquqiy ta’lim, psixologik ko‘nikmalarga oid).

- uchinchi bosqich - nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish.

Bunda, idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash xizmatlariga o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulot, nomzodlarning umumjismoniy tayyorgarlik darajasini baholash yuzasidan o‘tkaziladi.

86. Tanlov transport vositalarini boshqarish bilan bog‘liq kasblar uchun quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

- birinchi bosqich - nomzodlarni testdan o‘tkazish;
- ikkinchi bosqich - amaliy mashg‘ulot (*transport vositalarini boshqarish ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazish*);

- uchinchi bosqich – nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish.

Bunda, sinovlar bevosita e’lon berilgan bo‘sh ish o‘rniga muvofiq bo‘lishi lozim va E-avtomaktab dasturiy platformasi orqali yohud yo‘l harakat xavfsizligi qoidalari bo‘yicha biletlar (shablon) yuzasidan test o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

87. Tanlovning barcha bosqichlarida (test, amaliy va suhbatda) to‘plash mumkin bo‘lgan ballning 60 foizidan kam natija ko‘rsatgan nomzod tanlovdan o‘tmagan hisoblanadi.

Tanlov jarayonida to‘plash mumkin bo‘lgan ball (60 foizidan kam) mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda, Komissiya qarori bilan ushbu foiz miqdori o‘zgartirilishi mumkin va bu haqda tanlov bayonnomasida asoslantirilgan holda rasmiylashtiriladi.

88. Tanlov komissiyasi tanlovning suhbat bosqichida nomzodni baholash jarayonida uning bo‘sh ish o‘rni mavjud xudduda ishlay olishi, yashash hamda ishga qatnash sharoitlari va imkoniyatlarini ham qo‘srimcha baholaydi.

89. Nomzodning barcha bosqichlar bo‘yicha to‘plagan ballari Tanlov komissiyasi tomonidan jamlanadi va umumiylashtiriladi.

Umumiy bayonnomada nomzodlarning har bir bosqichdagi natijalari va Tanlov komissiyasining yakuniy qarori aks ettirilgan holda Komissiya raisi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

